



**YUQORI SINIF O'QUVCHILARNING OILAVIY HAYOTGA
TAYYORLASH PEDAGOGIKASI**

Sayliyeva Umida Sodiqovna

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Anatatsiya: Maqolada yuqori sinf o'quvchilarining psixologik jihatlarini tadqiq qilish ular uchun zarur bo'lgan bilimlar, yuqori sinf o'quvchilarida uchraydigan muammolar va ziddiyatlarni oldini olish, ularni kasbga yo'naltirish bu borada olib borilayotgan chora tadbirlar dasturi, shuningdek yuqori sinf o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash uchun zarur bo'ladigan pedagogik va psixologik bilimlarini boyitish.

Kalitso'zlar: Pedagogika, murakkab, psixologik, psixolog, yo'nalish, yuksaklik, muammo, ziddiyat, ta'lim maktab, maxsus ta'lim, jarayon, imkoniyat, ishonch, kasb, psixologiya, oila, jamiyat, mahalla, fuqaro, shaxs, takomillashuv, hayotiy bilimlar, maslahat.

Abstract: The article discusses the psychological aspects of high school students, the knowledge they need to learn, the prevention of problems and conflicts that occur in high school students. The program of measures being taken in this regard is aimed at guiding them towards a career, as well as providing high school students with the pedagogical and psychological knowledge necessary to prepare them for family life enrichment.

Keywords: pedagogy, complex psychology, psychological, direction, elevation, problem, conflict, education, school, special education, process, society, neighborhood, citizen, improvement, consultation, person.

Yuqori sinf o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash pedagogikasi – bu o'quvchilarni kelajakdagi oilaviy munosabatlar va hayotga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon, o'quvchilarga o'z oilaviy hayotlarini muvaffaqiyatli ravishda boshqarishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlarni o'rgatishga qaratilgan.

Quyidagi jihatlar bu pedagogikaning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

1. Qadriyatlar va axloqiy me'yorlar: O'quvchilarga oilaviy munosabatlar, mas'uliyat va hurmat kabi asosiy qadriyatlar o'rganiladi.
2. Kommunikatsiya ko'nikmalari: Oila a'zolari o'rtasida samarali muloqot qilish muhimdir. O'quvchilarga fikrlarini ifoda etish va tinglash ko'nikmalari o'rgatiladi.
3. Hissiy intellekt: O'quvchilarga o'z va boshqalar hissiyotlarini tushunish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beriladi.
4. Muammolarni hal qilish: Oila ichidagi nizolar va muammolarni hal qilish strategiyalari o'rgatiladi.
5. Oila rejalashtirish: Oila qurish, bola tarbiyasi va moliyaviy rejalashtirish kabi masalalarda bilim berish.






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

6. Hayotiy ko'nikmalar: O'quvchilarga oziq-ovqatdan tortib, tozalikka, byudjet tuzishga va kundalik hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarga qadar har tomonlama tayyorlash.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati o'quvchilarni faqat akademik bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashga bog'liqdir. Pedagoglar va oilalar ushbu yo'nalishlarni birgalikda rivojlantirish orqali o'quvchilarning hayotiy tayyorgarligini yanada oshirishlari mumkin. O'quvchi yoshlar bilan ishlashda faqatgina pedagoglar bilan to'xtalib qolmasdan balki psixologlar ham alohida ishlashi, o'rganishi, yoshlarni qiynayotgan psixologik muammolarni tahlil qilgan holda ularga to'g'ri yechim topishi, shuningdek har bir o'quvchini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun turli xil motivatsiyalarni ham berishi zarur hisoblanadi. Yosh avlodni bilimli, salohiyatli, har bir sohada yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash, manaviy jihatdan to'g'ri tarbiyalash jamiyatda farzand tarbiyalayotgan har bir ota-onaning burchidir. Yoshlarni oilada o'rganadigan ko'pgina qadriyatlar mavjud bo'lib bular asosan oiladagi keksa yoshli bobo-buvijonlar tomonidan o'rgatilmog'i kerak, chunki ular hayotda katta tajriba to'plagan bo'lishadi, ko'pgina qadriyatlarni ham yosh avloddan ko'ra ko'proq bilishadi va ularni asrashga, qadrlashga harkat qilishadi. Oilada hurmatni, ishonchni shakllantirish eng muhim mezonlardandir, shu ikkalasi bo'lsa oila a'zolari o'rtasida bir-biriga hurmat ko'rsatish yanada yaxshiroq bo'ladi, ishonch bo'lishi oilada hech bir keraksiz shubhalarga yo'l qo'ymaydi, insonlarning bugungi kunda bir-birlariga bo'lgan ishonchlari kundan-kunga kamayib bormoqda bunga eng asosiy sabab esa yolg'onning jamiyat a'zolari o'rtasida avj olishi, insonlarning o'z yaqinlariga ham ishonsizlik qilishi bularning barchasi oilaning hamjihatligiga, birligiga putur yetkazadi.

A. Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir", degan fikri o'zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvalgiga o'xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o'gitiga amal qilish udumi yo'qolib bormoqda. Har kim o'zi bilan ovora birovning gapi birovga yoqmaydi. S.V.Kovolyov o'smir va qizlarda oila va nikoh tushunchalari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishlari juda muhimdir, deydi. Nikoh va sevgi tushunchalari 13-15 yoshli bolalarda qarama-qarshi tushunchalar ekanligi bilan ko'zatiladi, ya'ni ular sevgi va nikoh bir-biriga teskari tushunchalar ekan deb tushunadilar. Talabalarda umr yo'ldosh tanlashda sevgi tushunchasi faqat 4 o'rinda, ya'ni xurmat qilish, ishonch, bir-birini tushunish kabi xislatlardan keyin turadi. Yoshlar oilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yib, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar. Bizning asosiy vazifamiz shuki, o'smirlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgini ro'li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini o'qtirishdir. O'zbekistonning mintaqada va xalqaro maydonda tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro tashabbuslarini izchillik bilan ilgari surish mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi iminini, obro'-e'tiborini yanada





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish va uni amalda bajarish kun talabidir. O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadigan yana bir yo'nalish sifatida jahon siyosiy va iqtisodiy tizimida yetakchi o'rin tutgan modernizatsiya jarayonlari uchun kerakli ilg'or texnologiyalar manbai sinalgan, sanoati rivojlangan G'arb davlatlari bilan ko'p qirrali hamkorlik, rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilgan. Tashqi siyosatimizning yana bir asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga global siyosiy va iqtisodiyotda tobora asosiy o'rinlardan birini egallab borayotgan Osiyo Tinch okeani mintaqasi tushunchalari kiritilgan. Tashqi siyosati mizning muhim ustuvor yo'nalishlaridan yana bir sifatida O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy faoliyatidagi ishtiroki ko'rsatilgan va asoslangan. Yosh ota-ona nikohdan o'tmasdan avval oilaviy hayotni tashkil etish hamda farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari zarur. Nikohdan keyin esa bu boradagi mas'uliyatni yanada teran his etgan holda o'z ustilarida izlanishlari, farzand tarbiyasini to'g'ri tashkil etish borasidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Biroq, ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, oilaviy hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning barchasi ham bu borada etarlicha pedagogik bilimlarga ega emas. Bu esa ota-onalarni kerakli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, mazkur adabiyotlarni o'qib-o'rganishni ular orasida keng tashviq etishni talab etadi.

- Bolalar tarbiyasidagi burchlarini mas'uliyat bilan his qilishlariga va bajarishlariga.
- Mehnatda shaxsan namuna ko'rsatishlariga.
- Barcha farzandlarini teng ko'rishga.
- Farzandlarining harakter xususiyatlarini yaxshi bilishga.
- Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning turli xil metod, usul va vositalarini yaxshi bilish hamda ulardan oqilona foydalana olishga.
- O'z obro'sini oilada doimo saqlashga.
- Farzandlarini doimo mehnat topshiriqlari bilan band qilishlariga va talabchanliklariga.
- Oila xo'jaligini mohirlik bilan boshqara olishlariga.
- Oila tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan bog'lab olib borishiga.
- Ota-ona talablarida birlikning bo'lishiga.
- Ota-onalarning oilani iqtisodiy ta'minlashga va hokazo.

O'zbekistonning mintaqada va xalqaro maydonda tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro tashabbuslarini izchillik bilan ilgari surish, mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi iminjini, obro'-e'tiborini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish va uni amalda bajarish kun talabidir.

O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadigan yana bir yo'nalish sifatida jahon siyosiy va iqtisodiy tizimida yetakchi o'rin tutgan modernizatsiya jarayonlari uchun kerakli ilg'or texnologiyalar manbai sinalgan, sanoati rivojlangan G'arb davlatlari bilan ko'p qirrali hamkorlik, rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilgan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Tashqi siyosatimizning yana bir asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga global siyosiy va iqtisodiyotda tobora asosiy o'rinlardan birini egallab borayotgan Osiyo Tinch okeani mintaqasi tushunchalari kiritilgan. Tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo'nalishlaridan yana bir sifatida O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy faoliyatidagi ishtiroki ko'rsatilgan va asoslangan. Mumtoz adabiyotimizning vakillari bo'lish shoirlarimizga otinoylar muallimlik, murabbiylik va ustozlik qilishgan. X asrdayoq Turkistonda dongdor shoirlarimiz yetishib chiqqani bilan Faxrlansak arziydi. X asrda yashab, ijod etgan Robia Balxiy, XI asrda yashagan Oysha Samarqandiy, XII asrda yashagan Munisa, XIII asrda yashagan Mutriba begimlarning nomlari ajoyib shoirlar sifatida tarixda qolgan. Mehriy, Nihoniy, Iffatiy, Shamila, Gavharbegim, Dilshod Xotut kabi shoirlarimiz esa Alisher Navoiyga zamondosh bo'lishgan. Boburiylar xonadoniga mansub sohibali.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. O'qituvchi, 1998. - 258 b. Toshkent:
2. Karimova V. Oila psixologiyasi. Toshkent. O'qituvchi, 2007. - 316 b
3. Karimova O. Oila huquqi asoslari Toshkent: "O'qituvchi", 2003. 154 b.
4. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi Toshkent: Fan, 2006. 142 b.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.
6. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
7. Jo'rayev R.X., Safarova R.G., Musaev U.Q. Pedagogika fanlari konsepsiyasi // Xalq ta'limi. Toshkent, 1997. № 4. - B. 4-12.
8. A.Navoiy. Hikmatlar. - T.: 2014. - 190-bet.
9. Vatan tuyg'usi. - Toshkent, 1996. 90-bet.
10. Qurbonov Tursunali. Ota bo'lish osonmi yohud o'g'il yuqori sinf o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ma'naviy-pedagogik asoslari. T.: Ma'naviyat, 2007. 216 b.
11. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima (Shayx) Alouddin Mansur. 769-b.

